

MOYCHECHAK VA ISRIQNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI VA TIBBIYOTGA TATBIG'I

Tojiboyev Murodali Umaraliyevich,

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Dotsenti.

Samatov Oyatillo Shokirjon o'g'li,

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Aniq va

Tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya yo'nalishi, 1-bosqich talabasi

Nabiyev Fayzullo Nurilloxon o'g'li,

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Aniq va

Tabiiy fanlar fakulteti, 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7966377>

Annatatsiya: Moychechakning tarqalish joyi, morfologiyasi, formokalogiyadagi ahamiyati, meditsinada ahamiyati, xalq tabobatida ahamiyati, dorivor moychechakning eksporda ahamiyati, ko'payishi, yetishtirish texnologiyasi, turli kasalliklarga davo xususiyati, kosmetikada ahamiyati, isiriqning biologik tuzilishi, morfologiyasi, gulining tuzilishi, tabobatdagi nomi, tarkibi, dorivorlik xususiyati, foydali jihatlari kimyoviy tarkibi va xalq tabobatida o'rni.

Kalitso'zlar: farmatsevtika, tuproq, harorat, foiz, urug', medisinaqaynatma, damlama, kasalliklar, tabiat gavhari, rangi, guli.

Moychechak - asablaringiz uchun quvvat

Dorivor moychechak meditsinada keng qo'llaniladigan eng muhim dorivor o'simliklardan biridir. Farmatsevtikada moychechak gullari keng qo'llaniladi va turli-tuman dori vositalari olinadi. Shu bilan birga dorivor moychechak xalq tabobatida juda ko'pchilik kasalliklarni davolashda keng ishlatiladi. Shuning uchun moychechak farmatsevtika, meditsina va xalq tabobatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga dorivor moychechak eksportbop ekin hisoblanadi. Bu esa respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun dorivor moychechakni tuproq iqlim sharoitiga bo'lgan talabini aniqlash, uni yetishtirish areallarini to'g'ri belgilab olishda hamda yuqori va sifatli hosilga erishishda dolzarb hisoblanadi.

– Dorivor moychechak mo'tadil iqlim o'simligi bo'lib, soya joylarni xush ko'rmaydi. Tabiat va ishlab chiqarishda faqat urug'i bilan ko'payadi. Dorivor moychechak tuproq unumdorligiga yuqori talab qo'ymaydi, u mexanik tarkibi yengil bo'lgan qumloq tuproqlarda ham, og'ir qumloq va loy mexanik tarkibli tuproqlarda ham muvaffaqiyat bilan o'stiriladi. Shu bilan birga nam va oziq elementlar yetishmagan sharoitlarda gullash jadalligi, to'pgul soni va massasi kamayadi, urug'ining yetilish jarayoni tezlashadi. Urug' uchun ekilgan dorivor moychechak almashlab ekishdan tashqarida yetishtiriladi. Chunki pishgan urug'larni katta qismi tuproqqa tushib keyingi yili begona o't sifatida unib chiqadi. Umuman olganda xom ashyo va urug' uchun yetishtiriladigan dorivor moychechak o'stirish texnologiyasi, jumladan tuproqni tayyorlash, ekin va o'simliklarni parvarishlash o'xshash bo'ladi. Dorivor moychechak ko'pchilik dorivor o'simliklar kabi qator orasiga ishlov beriladigan ekin sifatida yetishtiriladi. Bu qator orasini yumshatishni mexanizatsiyalashtirishga imkon beradi va begona o'tlarga qarshi kurashishni osonlashtiradi. Adabiyotlarda shunday ma'lumotlar borki ekish me'yori oshirilganda yoki kamaytirilganda urug'lik dalalarda yoppasiga va tor qatorlab ekish usuli qo'llanilganda urug' hosili ortgan.

Dorivor moychechak lalmi yerlarda ham yaxshi o'sishi mumkin. Buning uchun yillik yog'in miqdori 600 mm dan yuqori bo'lishi kerak. Dorivor moychechak yorug'savar o'simlik. Normal o'sishi va rivojlanishi uchun unga yuqori jadallikdagi yoritilganlikdagi uzun kun kerak bo'ladi. O'suv davrida eng optimal havo harorati, ayniqsa gullash davrida 19-20 °C ni tashkil etadi. Dorivor moychechak dunyoda eng ko'p va keng ishlatiladigan dorivor o'simlik hisoblanadi. Dorivor moychechakni eng fitoterapevtik foydali organi to'pguli hisoblanadi. Ularning dorivor ta'siri efir moylarini tarkibi va miqdori bilan o'lchanadi.

Shunday qilib, dorivor moychechak O'zbekiston tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan, uning o'sishi, rivojlanishi va hosil to'plashini normal kechishi uchun barcha sharoitlar mavjud. Hatto O'zbekistonning sho'rlangan tuproqlarida, xususan sho'rtob tuproqlarida ham dorivor moychechakni muvaffaqiyat bilan yetishtirish mumkin.

Moychechak tomoq yallig'lanishi va shamollashda, surunkali gepatit, gastrit, oshqozon yarasi, buyrak va teri kasalliklarida foydali. Moychechak damlamasi asabni tinchlantirib, organizmni tetiklashtiradi. Uyqu oldidan ichilgan moychechak damlamasi uyqungizning osuda bo'lishini ta'minlaydi.

Yoz kelishi bilan ko'pchilikni qiynaydigan tovon yorilishi muammosida moychechak nihoyatda samarali. Buning uchun moychechak eritmasi va dengiz tuzi solingan suvda oyoqlar 15-20 daqiqa davomida ushlab turilsa, kaft va tovon terisi nafislashda ishlatiladi.



ISIRIQ

Isiriqni tanimaydiganlar oramizda bo'lmasa kerak, albatta. Lekin uning tibbiy xususiyatlarini to'la biladiganlar kam topiladi. Aynan shuni hisobga olgan holatda saytimizning bugungi mavzusini isiriqning tibbiy xususiyatlarini yoritishga qaratdik. Avval o'simlikning biologik tuzilishi bilan tanishib olsak, isiriq 30-70 sm bo'lib o'sadigan ko'p yillik o'simlikdir. Poyasi bir nechta, ko'p tukli, poyasi atrofga yoyilib o'sadi. Oq sarg'ish gullari poyada yakka-yakka o'rnashgan. Mevasi sharsimon, ko'p urug'li. U erta bahordan o'sa boshlaydi. Issiriqning tabobatdagi o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, sir emaski bu o'simlik "tabiat gavharlaridan" biri

hisoblanadi. U tabobatda keng miqyosda ishlatiladi. O'simlikning bunday keng miqyosda ishlatilishiga sabab, uning tarkibida alkaloidlar, peganol, peganidin, garmin, garmalin, turli moylar, oshlovchi moddalarning mavjudligidir. Yuqoridagi moddalardan misol tariqasida oladigan bo'lsak, garmin asab tizimini tinchlantiradi, bosh miya yallig'lanish asorati – qaltirashni davolashda va uxlatuvchi modda (dori) sifatida ishlatilgan.

Endi esa qanday holatlarda isiriqdan foydalangan holatda darddan forig' bo'lish mumkinligini birma-bir sanab o'tsak (Qancha sanasak ham sanog'iga yetish qiyin)

Foydali jihatlari

- Isiriq o'tini kuydirib, biroz hidlansa bosh og'rig'i yo'qoladi;
- Isiriq urug'i qaynatmasi nafas olishi qiyinlashganda , nafas qisishida zig'ir urug'i bilan bilan arashtirib ichilsa yuqoridagi dardlarga davo bo'ladi;
- Isiriqning shonalash davrida olinadigan o'ti va urug'lari davolashda ancha samarali hisoblanadi;
- Isiriqni tinchlantiruvchi vosita sifatida ham qo'llash mumkin. Bu xususiyati uyqusizlikda ajoyib foyda beradi;
- O'simlikning shirasi – katarakda ancha samara beradi (Qaynatmasi bilan yuz yuviladi);
- Uy-joylarni dezinfeksiya qilish maqsadida tutatib qo'yish mumkin;
- Isiriqning sut shirasi tibbiy paxtaga shimdirilib, qichimadan qiynalgan joylarga 10 kun davomida davomida surtilsa, qichimani tuzatadi;
- Yurak faoliyatini yaxshilash maqsadida isiriq urug'i, sedana, kamfora, murch, petrushka, qora zira, za'faron teng miqdorda olinib, aralashtiriladi. Hamda asal yoki shaker qo'shib kuniga bir mahal ichiladi;
- Ich dam bo'lganda isiriqga, petrushka urug'ini hamda yalpiz, zanjabil kabilarni aralshtirilib ichilsa, shifo bo'ladi;
- Isiriq peshob haydovchi, tish og'rig'i, terlatuvchi, grippni oldini oluvchi, oshqozon-ichak tizimi kasalliklarini davolovchi xususiyatlari ham mavjud!



O'simlik ildizida 3,3 % gacha , poyasida 3,57 % gacha , bargida 4,96 % va urug'ida 6,60 % gacha alkaloidlar borligi qayd qilingan bo'lib , ular yig'indisidan garmalin , garmin, peganol , dezoksipeganin kabi moddalar ajratib olingan . Isiriq qadim zamonlardan beri sharq xalqlari medesinasida qo'llanilib kelinayotgan shifobaxsh giyohlardan hisoblanadi .

Xalq medesinasida isiriqning yer ustki qismining qaynatmasidan teri kasalliklarida ,bodni davolashda vanna qilish yo'li bilan foydalanish tavsiya etilgan . Shuningdek , isiriqdan tayyorlangan qaynatma va damlamalardan bezgak , tutqanoq , nevrasteniya , shamollash bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarda foydalaniladi . Isiriqdan tayyorlangan qaynatma bilan og'iz chayiladigan bo'lsa , og'iz bo'shlig'i va tomoqning shamollashiga barham beriladi .

Abu Ali Ibn Sino isiriqni kuymich asablari shamollaganida , tizza va suyaklar qaqshab og'riganida , og'riq qoldiruvchi omil sifatida ishlatishni tavsiya etgan . U isiriqdan kuchli siydik haydovchi omil sifatida foydalangan . Isiriqning sut shirasiga 10 kun davomida shimdirilgan bir tutam paxta yoki junli mato qichma bilan og'rigan bemorlarga surtilsa , ular anchagina taskin topishi haqidagi ma'lumot ulkan ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniyning «Kitob as-saydana fit-tibb» asarida keltirilgan .



References:

1. O'zME.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil.
2. K.Hoshimov, S.Nishonov.Pedagigika tarixi.
3. O'zbek folklori.
4. <https://e-library.namdu.uz>.
5. <https://library.navoiy-uni.uz>.

INNOVATIVE
ACADEMY